

AMIR TEMUR JAHON TARIXIDA

Normuminov Ramziddin Xayitovich

O'zbekiston-Finlandiya instituti assistenti +998 93 333 30 93

ramziddinnormuminov18@gmail.com

Ismatov Bahodir Sadriddin o'g'li

O'zbekiston-Finlandiya instituti talabasi +998 97 408 50 04

Annotasiya. Ushbu maqolada Amir temurning bolaligi, jahonda tutgan o'rni va Yevropa davlatlarining usmonli turklar hujumidan hamda o'zining harbiy yurishlari haqida, o'z davlatini tuzishda olib borilgan siyosati haqida malumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar. Amir Temur yoshligi, Buyuk Amir, Mo'g'ulistonga yurishi, Eron va Kavkaz istilosi, uch yirik yurishi, Xitoyga yurishi.

Kirish. Mustaqillik yillarida Amir Temur xotirasining tiklanishi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov sa'y-harakati bilan Amir Temurning jahon tarixida tutgan o'rni o'z joyiga qo'yila boshlandi. O'zbekistonda uning faoliyatini o'rganishga va ommalashtirishga keng yo'l ochildi. Amir Temurning nomi O'zbekistonda abadiylashtirildi. Ko'plab shahar va qishloqlardagi shohko'chalar, maydonlar, jamoa xo'jaliklari, maktablar, kinoteatrlar va boshqalarga nomi berildi.

Amir Temur o'zi va yoshligi haqida¹. Amir Temur Kesh viloyatidagi **Xo'ja Ilg'or** qishlog'ida (Yakkabog' tumani)da **1336-yil 9-aprel** kuni tavallud topgan. Uning to'liq ismi **Amir Temur ibn Amir Tarag'ay ibn Amir Barqul**. Amir Temurning onasi **Takina xotun** Kesh yurtining obro'li beka (bekog'o)laridan hisoblangan. Uning otasi **Amir Tarag'ay barlos** urug'ining oqsoqollaridan bo'lib, ajdodolari Kesh va Nasaf viloyatida o'z mulklariga ega bo'lgan va bu yurtda hokimlik qilgan.

Amir Temurning yoshligi ona yurti Keshda kechdi. Amir Temur bolalarga xos bo'lgan ermak o'yinlardan voz kechib o'z tenqurlari bilan sipohiylikka oid o'yinlar bilan shug'ullanadi. Shu asnoda **Amir Temur** Tulporlarni saralab ajrata oladigan mohir chavandoz va dovyurak bahodir sifatida voyaga yetdi. Amir Temur siyosiy kurash maydoniga XIV asrning 50-yillari oxirlarida kirib keladi.

„Buyuk amir” sifatida saylanishi.

Sayyid Baraka Amir Temur faoliyatini qo'llab-quvvatlab, unga oily hokimiyat ramzi katta nog'ora-tabl bilan yalov-bayroq tortiq qiladi. Chunki u saltanatlik ramzi edi. Keyin Amir Temur Balxga yetmasdan O'rpuz mavzeida u amir va no'yonlar bilan kengash o'tkazadi. Ko'pchilik xohish va ixtiyori va o'sha davr qonun-qoidalariga

¹Arxiv.uz

ko'ra, chingiziylar avlodidan bo'lgan Suyurg'atmish o'g'lon Movarounnahr podsholigi taxtiga o'tqazildi². Amir Temur katta qo'shin bilan Balxga Amir Husayn tomon yo'l oladi. Jangda Amir Husayn qo'shini yengiladi, ikkikunlik qamaldan so'ng, 1370-yilning 10-aprelda Balx shahri Amir Temurga taslim bo'ladi. Amir Husayn asir olinib qatl etiladi.

Mo'g'ulistonga yurishi. Amir Temur Mo'g'uliston hokimi Qamariddin bilan to'qnashib qoldi, chunki bu davrda uning Movarounnahrda bo'lgan talonchilik xurujlari kuchayib ketgandi. 1370-1371-yillarda u Toshkent va Andijon ustiga bir necha bor bosqin qilib, talab qaytgandi. 1376-yilda esa Qamariddin hatto Farg'ona vodiysining talaygina qismini bosib oldi. Yigirma yil (1371-1390-yy) mobaynida Sohibqiron mo'g'ullar ustiga yetti marta yurish qilib, mo'g'ul hukmdori Anqoto'ra va Qamariddin ustidan g'alaba qozondi.

Eron va Kavkaz istilosi³. Amir Temur tez oroda qo'shni davlatlar va xalqlar ustiga yurish qilib, ularni o'ziga bo'ysundirish va markazlashgan buyuk saltanat barpo etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Bu davrda Oltin O'rda, Xuroson va Erondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat uning uchun juda qo'l keldi. Amir Temur harbiy yurishni Xurosondan boshladi. 1381-yil u Hiroti egalladi. Saraxs, Jom va Qavsiya shaharlari jangsiz taslim bo'ldi. Xuroson xususan uning poytaxti Hirot strategik jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lib Eron, Iroq, Shom va boshqama mamlakatlarga o'tishda ko'priq vazifasini o'tardi. 1381-1384-yillar davomida Amir Temur Eronning katta qismini egalladi. Avval (1381-y) Kalot, Turshiz va Sabzavor, keyin (1383) Seistonning Zireh, Zova, Farah va Bust qal'alari, 1384-yilda esa Astrobot viloyati va Ozarbayjonning Omul, Sori, Sultoniya va Tabriz shaharlari istilo qilindi.

Amir Temurning uch yirik yurishlari. Amir Temur Eron, Ozarbayjon, Iroq Shom (Suriya) ustiga 3 marta lashkar tortdi. Bu yurishlar tarixda "3 yilik", "5 yillik" va "7 yillik" urushlar nomi bilan mashhur. **Uch yillik** (1386-1388-yy) harbiy istilolar oqibatida Janubiy Ozarbayjon, Iroqning shimoliy qismi, Gurjiston va Van ko'li atrofidagi yerlar egallandi. Shundan so'ng Amir Temur butun e'tiborini Eron, Iroq, Suriya, Kichik Osiyo va Hindiston yerlarini uzil-kesil zabt etishga qaratdi. U **besht yillik** (1392-1396-yy) urush davomida G'arbiy Eron, Iroqi Ajam va Kavkazni egalladi, natijada muzaffariylar vajaloiiriyar sulolasining hukmronligi barham topdi. Amir Temur Hindiston istilosi (1398-yil may-1399-yil mart) qariyb 11 oy davom etdi. Amir Temur Hindistondan katta o'lja, shu jumladan 120 jangovar fil bilan qaytdi. O'ljaning bir qismi qo'shinga taqsimlab berildi, qolgani Samarqand va Kesh shaharlarida olib borilayotgan qurilishlarga sarflandi⁴.

² Farhod Sultonov. O'rta asrlar tarixi. Toshkent „sharq“ 2012-yil.314-bet

³ Arxiv.uz

⁴ Alimov R. A., Amir Temur (Metodik tavsiyanoma) T.1995

Amir Temurning **yetti yillik** (1399-1404-yy) olib borilgan harbiy yurishlari natijasida Shomning Halab (Aleppo), Xums, Dimishiq (Damashq) kabi yirik shaharlari va Iroq Arabning Ubuliston o'lkasi (qadimgi Kappadokiya) bilan Bag'dod, shuningdek Turkiyaning katta qismi zabt etildi. Anqara jangida (1402-yili 20 iyul) Amir Temur jahoning buyuk sarkardalaridan biri Boyazid Yildirim ustidan g'alaba qozondi. Amir Temur Usmoniy turklar davlatini butunlay bosib olish niyatida bo'lmagan, chunki u Yevropada davlatlarining Yaqin Sharq mamlakatlariga nisbatan tajovuzkorona niyatida ekanligini yaxshi bilar edi. Shuning uchun Amir Temur Usmonli turklar davlatini saqlab qoldi va Boyazidning vorislariga muruvvat qo'lini cho'zdi. Shunday bo'lsada, Boyazid ustidan qozonilgan bu g'alaba bilan Amir Temurni Fransiya qiroli Karl VI (1380-1422-yy), Angliya qiroli Genirix IV (1399-1407-yy) tabriklab, unga maxsus maktub yubordilar. Chunki Amir Temur endigina uyg'onayotgan Yevropaga islom dinini yoymoqchi bo'lgan Usmoniy turklar davlatiga zarba berib, Yevropadagi nasroniylarnin xaloskoriga aylangan edi.

Xitoyga yurishi va vafot etishi.⁵ Amir Temur Kichik Osiyodan Samarqandga qaytgach, 1404-yil 27-noyabrda 200 ming qo'shin bilan Samarqanddan Xitoy safariga chiqdi. Biroq Xitoy ustiga yurish Amir Temurning O'trorda vafoti (1405-yil 18 fevralda) amalga oshmay qoldi. Ma'lumki, Amir Temur 1405-yil kuchli shamollash sababli olamdan o'tdi deyiladi. Lekin, Amir Temurni vafotini tezlashtirgan boshqa sabablar ham bor. **Ibn Arabshohning** yozishicha (1436-yil yozilgan) kuchli sovuq natijasida "Temur Sibirda (sovuqdan jismni zaiflashtiradigan kasallik) kasalikka chalinib, tabiblar uni rad etish maqsadida tayyorlagan tarkibida isitadigan moddalar, xushbo'yliklar va rezavorliklar bo'lgan xamr arag'ini iste'mol qilgan". Tarixchi, Xondamirning fikricha Amir Temur o'limini tabiblar Dori sifatida tayyorlagan araq tezlashtirib yuborgan. Xondamir "Habib us-siyar" asarida shunday yozadi: Sohibqiron shu asosda aroqqa rag'bat ko'rsatdi, unga javhar keltirishlarini buyurdi, ko'rinishidan suvdek bo'lsa ham sifati jihatidan olovdek edi. Oliyjanob Sohibqiron ikki kecha kunduz araq ichdi, ammo also ovqat yemadi. Shuning uchun mijozda o'zgarish yuz berdi. Bu o'zgarishni tabiblar xumor belgisi bo'lsa kerak deb tushindilar. Yana unga bir ikki qadah berdilar, harorati biroz taskin topdi, ammo vujudi va tabiatiga sharob ta'sir qildi shekilli, issig'i yana ko'tarilib ketdi. Sohibqiron sog'lig'i yomonlashdi. Mazkur ichimlik bu vaqtda faqat tabobatda qo'llanilib, mast qiluvchi funksiyasi o'zlashtirilmagan edi. Temur kasalining kuchayishi va ko'p miqdorda iste'mol qilingan araq sabab bo'lgani haqida o'sha davr tarixchisi Hofiz Abru ham yozadi. Amir Temurning vafoti haqidagi xabargarchi avvalda sir tutilsada, ammo ko'p vaqt o'tmay

⁵ Azamat Ziyo O'zbek davlatchiligi tarixi Toshkent sharq nashriyoti 2001-yil.

bu noxush xabar mamlakat bo'ylab tarqalib ketadi. Amir Temurning jasadi Samarqandga olib kelinib dafn qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1) Azamat Ziyo O'zbek davlatchiligi tarixi Toshkent sharq nashriyoti 2001-yil.
- 2) Amir Temur salnomasi, Muhammad ali. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti Toshkent 2008
- 3) Amir Temur harbiy yurishlari Xamidulla Dadaboyev „Yozuvchi nashriyoti“ 1996-yil.
- 4) Amir Temur jahon tarixida, S.Saiddosimov, A.Axmedov, B.Axmedov. Toshkent sharq nashriyoti 2001.